

THE PEDAGOGICAL ESSENCE OF DEVELOPING THE SOCIAL ACTIVITY OF STUDENTS WITH DISABILITIES THROUGH FOLKLORE

Feruza Abduvokhidkhojayevna Nasriddinova
Doctoral Student of Namangan State University

Abstract

This article examines the pedagogical essence of developing the social activity of students with disabilities through folklore. It analyzes the educational potential of folk tales, epics, proverbs, riddles, and legends in fostering moral values, communication skills, independent thinking, social adaptation, and active participation in society. The study also highlights the pedagogical conditions for the effective integration of folklore into the inclusive educational process to support the comprehensive development of learners with disabilities.

Keywords: Students with disabilities, folklore, social activity, inclusive education, pedagogical approach, moral education, national values, social adaptation, communicative competence.

Introduction

IMKONIYATI CHEKLANGAN O'QUVCHILARNI XALQ OG'ZAKI IJODI VOSITASIDA IJTIMOYIY FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK MAZMUN –MOHIYATI

Nasriddinova Feruza Abduvohidxo'jayevna
Namangan davlat universiteti doktranti

Annotatsiya

Mazkur maqolada imkoniyati cheklangan o'quvchilarning ijtimoiy faolligini rivojlantirishda xalq og'zaki ijodining pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Xalq ertaklari, dostonlar, maqollar, topishmoqlar va rivoyatlarning o'quvchilarda milliy qadriyatlarga hurmat, muloqot madaniyati, mustaqil fikrlash, hamkorlik, ijtimoiy moslashuv hamda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishdagi o'rni yoritilgan. Shuningdek, xalq og'zaki ijodi namunalaridan ta'lim-tarbiya jarayonida samarali foydalanishning pedagogik mazmun-mohiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: imkoniyati cheklangan o'quvchi, xalq og'zaki ijodi, ijtimoiy faollik, pedagogik yondashuv, inklyuziv ta'lim, milliy qadriyatlar, ma'naviy tarbiya, ijtimoiy moslashuv, kommunikativ kompetensiya.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ АКТИВНОСТИ ОБУЧАЮЩИХСЯ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ ПОСРЕДСТВОМ УСТНОГО НАРОДНОГО ТВОРЧЕСТВА

Насриддинова Феруза Абдувохидходжаевна

Докторант Наманганского государственного университета

Аннотация:

В статье раскрывается педагогическая сущность развития социальной активности обучающихся с ограниченными возможностями посредством устного народного творчества. Проанализированы воспитательные возможности народных сказок, пословиц, загадок, былин и легенд в формировании духовно-нравственных качеств, коммуникативной культуры, самостоятельного мышления, социальной адаптации и активной жизненной позиции обучающихся. Особое внимание уделено педагогическим условиям эффективного использования устного народного творчества в системе инклюзивного образования.

Ключевые слова: обучающиеся с ограниченными возможностями, устное народное творчество, социальная активность, инклюзивное образование, педагогический подход, духовно-нравственное воспитание, национальные ценности, социальная адаптация, коммуникативная компетентность.

Kirish:

Xalq san'atining qadimiy turlari yuqori paleolit davrida inson nutqining shakllanishi jarayonida yuzaga kelgan. Og'zaki ijod ibtidoiy davrlarda insonning mehnat faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan va diniy, mifologik, tarixiy tasavvurlar, shuningdek, ilmiy bilimlar kurtaklarini aks ettirgan. Ibtidoiy jamoa tuzimi davrlaridayoq inson tabiat kuchiga, taqdirga ta'sir etishga intilgan marosimiy amallar so'zlar bilan ifodalangan: duolar aytilgan, tabiat kuchlariga turli so'rovlar yoki tahdidlar bilan murojaat etilgan. So'z san'ati qadimgi madaniyatning boshqa turlari, ya'ni musiqa, raqs, naqqoshlik-amaliy san'at bilan uzviy bog'liq bo'lgan. Fanda bu "ibtidoiy sinkretizm" deb nomlanadi. Uning izlari hozirda ham xalq og'zaki ijodida sezilib turadi.

Ma'lumki, imkoniyati cheklangan bolalariga ta'lim-tarbiya berishdagi muhim vazifalarning asosiy qismi darslarida amalga oshiriladi. O'quvchilarni "Adabiyot", "Ona tili", "Tarbiya" darsliklari ham dasturi Davlat ta'limi standarti talablariga javob beruvchi konsepsiya asosida tuzilgan. Unda g'oyaviy, tematik, estetik, qisman mavsumiy tizimlar hisobga olingan. U o'z navbatida o'quvchining tevarak atrofdagi voqelikni idrok etishni ko'zda tutadi.

Darsliklarda o'quvchilar sevib o'qiydigan xalq og'zaki ijodi janrlariga ham keng o'rin berilgan. Xalq tomonidan yaratilgan og'zaki badiiy adabiyotga folklor deyiladi. "Folklor" asli inglizcha so'z bo'lib, "Folk" – xalq, "Lore" – donolik so'zlaridan yasalgan bo'lib, "Xalq donoligi", "Xalq donishmandligi" ma'nolarini anglatadi [1;68-b.].

O'zbek xalq og'zaki ijodi xilma-xil janrlardan tarkib topgan og'zaki so'z san'ati bo'lib, o'zbek xalqining dunyoqarashi, badiiy zavqi ijodiy salohiyati, orzu va intilishlarini aks ettiradi. Xalq

ogʻzaki ijodi ertak, doston, afsona, rivoyat, qoʻshiq, lapar, masal, maqol, topishmoq, latifa va naqlarni oʻz ichiga oladi. Xalq ogʻzaki ijodi materiallarida ijtimoiy hodisalar, kurashlar vatanni dushmandan mudofaa qilish, xalqning orzu-umidlari, urf-odatlar, rasm-rusmlari, marosimlari va boshqa turmush hodisalari ifodalanadi. Inson qadimdan atrof muhitda roʻy berayotgan voqea-hodisalarga oʻz munosabatini bildirgan. Bu munosabat, avvalo, turli xatti-harakatlar, ovozlari, ehtirolar vositasida amalga oshgan. Keyinchalik his-tuygʻularni soʻzlar, soʻz yigʻindisi, raqslar ifodalagan. Yana keyinroq odamlar oʻzlaricha dunyoning, tabiatning, hayvonlar, oʻsimliklar, togʻlar, suvlarning paydo boʻlishini izohlovchi toʻqima hikoyalar oʻylab topadilar. Yigitlar, qizlar muhabbat qoʻshiqlarini toʻqiydilar. Qabila-urugʻning mard va jasur yigitlari haqida, ularning gʻaroyib qahramonliklari haqida afsona va rivoyatlar paydo boʻladi. Bularning hammasi hali yozuv madaniyati vujudga kelmasdan oldin jamoa-jamoa boʻlib yashayotgan aholi oʻrtasida shuhrat topadi. Bugungi kunda biz ularni “xalq ogʻzaki ijodi” deb atashga odatlanganmiz [3;55-b.].

Ota-bobalarimizning aytmoqchi boʻlgan pand-nasihatlar, el eʼzozlagan odam boʻlishning talab-qoidalari, Alp Ertoʻnga, Toʻmaris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik kabi ajoyib yurt farzandlarining botirliklari, xalqimizning urf-odatlar, milliy fazilatlarimiz sanʼat darajasiga koʻtarilgan soʻz tizimlaridan iborat maqol, qoʻshiq, ertak, doston, bolalarga bagʻishlangan asarlar va boshqa janrlardagi namunalarda ifodasini topadi. Shuning uchun ham xalq ogʻzaki ijodini milliy qadriyatlar deb atash odat boʻlgan.

Xalq ogʻzaki ijodi ilmda folklor deb yuritiladi. Bu atamani 1846 yilda ingliz olimi Uilyam Toms taklif qilgan boʻlib, uning maʼnosi “xalq donoligi” degan tushunchadan iborat. Aslini olganda, folklor deganda, xalq tomonidan yaratilgan hamma sanʼat namunalari tushuniladi. Meʼmorlik, naqqoshlik, ganchkorlik, zardoʻzlik, musiqa, raqs, ogʻzaki adabiyot namunalari – hammasini folklor deb tushunish qabul qilingan[2;115-b].

Har bir sanʼat sohasida ish olib borayotgan mutaxassis oʻzi tanlagan turni “folklor” deb atayveradi. Masalan, musiqachi xalq kuylarini, xoreograf xalq raqslarini, arxitektor xalq meʼmorchiligini, folklorshunos olim xalq dostonlari, ertaklarini folklor asari deb hisoblaydi. Soʻz sanʼati sirlarini oʻrganuvchi sohada ish yuritganlar ham maqol, topishmoq, lof, askiya, latifa, qoʻshiq, ertak, dostonlarni folklor namunasi sifatida yozib oladilar, tahlil qiladilar. Xalq ogʻzaki ijodini oʻrganuvchi olim folklorshunos hisoblanadi. Shuning uchun ertak, qoʻshiq, doston va boshqa bir qator ogʻzaki ijod asarlari ijro davomida sinkretik sanʼat namunasi hisoblanadi. Sinkretik soʻzi birlashmoq, qorishmoq, aralashmoq tushunchasini bildiradi. Doston kuylanganda musiqa, soʻz, sahna sanʼatlari qorishib uygʻunlashadi. Yaʼni baxshi doʻmbira, soz chalib xonanda sifatida yoqimli ovozda doston aytadi. Doston esa matndan – soʻzlardan iborat boʻladi, musiqa asbobida ijro etilgani uchun baxshi xonandalik, sozandalik qiladi. Ayni paytda dostonidagi voqealarni tovush tovlanishi – sahna sanʼati – aktyorlik mahorati bilan hikoya qiladi. Natijada sinkretik sanʼat namunasi vujudga keladi (bu haqda keyingi mavzularda yana maʼlumot beramiz). Shuningdek, qoʻshiqlar yoki xalq dramasi oʻid asarlar ijrosida raqsga tushish, sahna harakatlari amalga oshiriladi. Binobarin, ijro etilayotgan asarning asosini soʻz tashkil qilgani bilan uning tinglovchilarga namoyish etilishini boshqa sanʼat turlari bilan aloqasiz tasavvur qila olmaymiz. Xullas, bugungi kunda murakkablashib ketgan sanʼat turlarining koʻpchiligi dastlabki bosqichda xalq ogʻzaki ijodi

asarlarini ijro etish jarayonida paydo bo'lgan, shakllangan, rivoj topgan va keyinchalik o'ziga xos san'at turiga aylangan bo'lishi mumkin desak, xatoga yo'l qo'ymaymiz[3;48-b].

Insoniyatda yangi avlodga yetkazish zarur bo'lgan, yanada ahamiyatli hayotiy tajriba to'plangan sari verbal ma'lumotning roli ortib borgan. Og'zaki ijodni mustaqil san'at turiga ajratilishi – folklor tarixidagi muhim qadam hisoblanadi.

Qadimgi davrda folklor xalq kundalik hayotiga xos bo'lgan so'z san'atiga aylandi. Asarlarning turli maqsadlari turli mavzular, obrazlar, uslublar bilan janrlarni yuzaga keltirdi: ko'pgina xalqlarda ajdodlar qabilaviy an'alariga, mehnat va marosim qo'shiqlari, afsonalar, duolariga ega edi. Mifologiya va folklor o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni o'rnatgan hal qiluvchi hodisa ertakning paydo bo'lishi hisoblanadi.

Antik va o'rta asr jamiyatida qahramonlik eposi rivojlandi (irlandiya sagasi, qirg'iz manasi, o'zbek dostonlari va h.k.). Shuningdek diniy extiqodlarni aks ettiruvchi afsona va qo'shiqlar yuzaga keldi (masalan, ma'naviy she'rlar). Keyinchalik haqiqiy tarixiy hodisalar va xalq xotirasida qolgan qahramonlarni ifodalovchi tarixiy qo'shiqlar yuzaga keldi. Agar marosimiy lirika (mavsumiy yoki dehqonchilik davrlariga taalluqli marosimlar, tug'ilish, to'y, o'lim bilan bog'liq oilaviy marosimlar) qadim zamonlarda yuzaga kelgan bo'lsa, mavsumiy bo'lmagan lirika uning oddiy insonga qiziqishi bilan ancha keyinroq paydo bo'lgan. Ammo vaqt o'tishi bilan marosimiy va nomarosimiy she'riyat o'rtasidagi chegara yo'qolgan. Masalan to'ylarda laparlar kuylaydilar, shu bilan birga to'y qo'shiqlaridan ayrimlari marosimiy bo'lmagan repertuarga ko'chgan [4;29-b].

Har qanday xalqning tiklanishi o'z ildizlariga murojaatsiz, milliy madaniyat qadriyatlarini egallash va qabul qilishsiz amalga osha olmaydi. «Folklor» tushunchasi ostida ko'pincha og'zaki, iborali badiiy ijod tushunilib, u inson nutqi shakllanishi jarayonida yuzaga kelgan. Folklor ma'lum xalqning ulkan qadriyatlarini va olamning umumiy manzarasini ifodalaydi. Folklori o'rganish bilan tarixchi, etnograf, sayohatchi, adabiyotchi, pedagog olimlar va boshqalar shug'ullanadilar, ular jamiyat taraqqiyoti jarayonida xalq og'zaki ijodining turli janrlari va shakllari yuzaga kelganligini ta'kidlaganlar. Folklorning ayrim janrlari uzoq davrdan buyon mavjud va zamonaviy jamiyatda ham foydalanilib kelinadi: alla qo'shiqlari, tarixiy qo'shiqlar, qo'shiq lirikasi, qahramonlik dostonlari, askiyalar, tez aytishlar, ertaklar, topishmoqlar, maqollar, rivoyatlar.

Qiziqish, ishtiyoq muammosi – butun pedagogikaning asosiy muammosidan biri va ixtiyoriy maktab fani bo'yicha mashg'ulotlarni muvaffaqiyatli olib borish uchun muhimdir. Bolalar turli faoliyat ko'rinishlari jarayonida folklori o'rganadilar: idrok va ijrochilik, o'yin, musiqiy-talimiy faoliyat, ijodiy faoliyat va boshqalar.

Maktabda xalq og'zaki ijodini o'rganish bo'yicha barcha mashg'ulotlar o'quvchilarning ijodiy rivojlantirish, ularda mustaqil fikrlash, o'z tashabbusi, ijtimoiy faolligini ifodalashga intilish, biror-bir yangi, shaxsiy, a'lo darajadagi ishni amalga oshirishga intilishlarini hosil qilishi kerak. Olimlarning fikrlariga ko'ra, kichik maktab yosh davri alohida qulay idrok etish xususiyatiga egadir. Bolada ko'rgazma-obrazli fikrlash va tasavvur jadal rivojlanadi, nutqi rivojlanadi, psixik hayotida tajriba bilan boyiydi, olamni idrok etish va tasavvur bo'yicha harakat qilish yuzaga keladi. Predmet va hodisalar to'g'risidagi umumlashgan bilimlarning

yuzaga kelishi xalq ogʻzaki ijodi orqali atrof-olam bilan tanishishning muhim bosqichi hisoblanadi.

Soʻnggi yillarda, tarbiyaning zamonaviy modellarini izlash bilan bir qatorda, xalq ogʻzaki ijodiga qiziqish ortdi, xalq pedagogikasining eng yaxshi namunalari tiklanmoqda. Xalq ogʻzaki ijodi – xalq pedagogikasining amaliy va yorqin vositalaridan biri boʻlib, oʻzida ulkan didaktik imkoniyatlarni aks ettiradi. Xalq ogʻzaki ijodi asarlari bilan tanishish bolalarning his-tuygʻulari va nutqini boyitadi, atrof-olamga munosabatni shakllantiradi, har tomonlama rivojlantirishda ahamiyatli munosabat kasb etadi. Imkoniyati cheklangan oʻquvchilari zamonaviy pedagogikasida jumladan, folklorning roli va oʻrni koʻrsatilgan tadqiqot eʼtiborlidir. Folklor – bolaning ilk yosh davrlaridanoq tarbiyani insonparvarlashtirishning amaliy metodi ekanligi taʼkidlanadi, chunki bolalarga ularning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda pedagogik taʼsir etishning koʻpgina bosqichlariga egadir[5;124-b].

Yuqorida ifodalanganlarni umumlashtirib, oʻtmishni bilishni, hozirgi zamon va kelajakni toʻgʻri tushunishni istagan har bir inson ommaviy tarbiyaning noyob vositasi hisoblangan xalq ogʻzaki ijodini bilishi kerakligini taʼkidlaymiz. Uning ahamiyati uning barcha namunalari goʻzallik, yaxshilik, tinchlikka intilish bilan bogʻlanganligidan iboratdir. Oʻqituvchining vazifasi esa – bolalarga xalq anʼanalari va urf-odatlarini oʻrganishning zaruratini tushunishlarini taʼminlashdan iborat.

Darsning muayyan bosqichida tarixiy qoʻshiqlar yoki afsonalar, maqollar va topishmoqlardan misollar keltirish oʻquvchilarning dunyoqarashlarini kengaytiradi, ularning vatanparvarlik hissiyotlarini tarbiyalaydi, tarixga, adabiyotga qiziqishni uygʻotadi, nutqni aniq, boy va ifodaliligini taʼminlab, uni rivojlantiradi. Xalq ogʻzaki ijodidan foydalanish darslarda oʻquv faoliyatining betakror elementi hisoblanadi – oʻquvchilarga yangi materialni yaxshi oʻzlashtirish, uni mustahkamlash, koʻnikma va malakalarni hosil qilishga yordam beradi, folklor oʻquvchilarning ijtimoiy faolliklari, tashabbuskorliklarini rivojlantiradi, bilishga oid faoliyatni faollashtiradi va bu bilan fikrlashni rivojlantiradi. Xalq ogʻzaki sheʼriy ijodining alohida turi mavjud – bu bolalar folklori hisoblanadi. Bolalar folklorining barcha asarlarini ularning funksional roli boʻyicha ikki guruhga ajratish mumkin: oʻyin harakatlari bilan bogʻliq asarlar (qofiyali sheʼrlar, sanashlar); bolalarni oʻzining soʻzli mazmuni bilan mashgʻul etadigan va oʻyinli hatti-harakatlardan qatʼiy nazar ijro etiladigan asarlar (alla qoʻshiqlari, askiyalar, afsonalar, tez aytishlar, maqollar) [6;88-b].

Zamonaviy boshlangʻich taʼlimda oʻqituvchi oldida oʻqish malakalarini toʻliq egallash vazifasi bilan bir qatorda oʻquvchilarning adabiy rivojlantirish vazifasi turadi. Bu muammoni oʻqish boʻyicha ixtiyoriy material asosida hal etish mumkin. Maqol va matallar adabiy tilni boyitish, uning ifodaliligi, aniqligini rivojlantirish uchun ulkan ahamiyatga ega. Koʻpgina maqollarning mazmuni nafaqat grammatik qoidalarni oʻrganish uchun xizmat qiladi, balki axloqiy sifatlarni tarbiyalash manbai boʻlib hisoblanadi: tabiatga, Vatanga, mehnatga muhabbat, faol, mehribon va hozirjavob boʻlishga oʻrgatadi. Masalan, “Harakat, harakatda barakat”, “Elda bori – senda bori”, “Intilganga tole yor”, “Bugungi ishni ertaga qoʻyma”, “Mehnat-mehnatning tagi rohat” kabi maqollar oʻquvchilarni ijtimoiy faollikka undaydi.

Imkoniyati cheklangan oʻquvchilarini ona tili va adabiyot darslarida maqollar va matallar ustida ishlash nafaqat savodxonlikni oʻrgatishda muhim oʻrin egallaydi va oʻquvchilarning

tafakkuri va nutqini rivojlantirish uchun noyob manba bo'lib hisoblanadi, balki ulardagi ijtimoiy faollikni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Qadim zamonlardan maqollar va matallar ahamiyatli didaktik vazifani bajaradi. Ular insonlarni ishonchli va oddiy yashash va ishlashga o'rgatadi, tabiat hodisalarini uzoq kuzatishlar natijalari bilan tanishtiradi, u yoki bu vaziyatda qanday yo'l tutish kerakligi to'g'risida oqilona maslahat beradi. Mehnat faoliyati va ma'naviy estetik me'yorlar asosiy qoidalarini aniq ifodalab, mazkur janr asarlari hayot darsligiga aylangan. Topishmoqlar o'quvchida kuzatuvchanlikni rivojlantiradi, hodisalarni taqqoslashga, xulosalar chiqarishga o'rgatadi, olamga yangicha, she'riy qarashga yordam beradi. Topishmoqlar boshlang'ich ta'limda ona tili darslarida savodxonlik darslarida, to'g'ri yozish qoidalarini o'rganishda, lug'at so'zlar bilan ishlashda qo'llaniladi. Bu o'quvchilar yozishda ko'pigina xatolikka yo'l qo'yadigan harf birliklariga ega bo'lgan topishmoqlar bo'lishi kerak: jarangsiz undoshli, jarangli va urg'uli unli so'zlar, lug'at so'zlar.

Topishmoq bolaning aqliy faoliyatini qo'zg'atadi, aqliy ishga didni shakllantiradi, nafaqat topqirlikni takomillashtirishga ko'maklashadi, balki umuman olam to'g'risidagi tasavvurni ahamiyatli kengaytiradi. Topishmoq - og'zaki san'at asari hisoblanib, bolalarning dunyoqarashlarini kengaytirish bilan birga atrof-olamni badiiy idrok etishni tarbiyalaydi va ona tilining metaforik boyligini ifodalaydi[6;112-b].

Tez aytishlar o'quvchilarning to'g'ri ravon nutqini shakllantirish va rivojlantirishga, to'g'ri va ravon o'qish sifatlarini takomillashtirishga yordam beradi. Tez aytishlar bilan ishlash mazmunni o'zlashtirish va alohida tovushlar yoki ularning birikmalarini to'g'ri talaffuz qilishni rivojlantiradi. Ulardan savodxonlikni o'rgatishda tovushlarni o'rganishda qo'llash mumkin.

Xalq og'zaki ijodi hozirgi kunlarda ham rivojlanishda davom etmoqda. Shu tariqa, folklorizm muammosi alohida e'tiborni talab etadi, imkoniyati cheklangandarslarida kichik folklor shakllari ya'ni xalq og'zaki ijodidan foydalanish esa dolzarb va istiqbolli hisoblanadi. Imkoniyati cheklangan o'quvchilarida ijtimoiy faollikni rivojlantirishda xalq og'zaki ijodi quyidagi funksiyalarni bajarishini aniqladik: estetik, tarbiyaviy, bilishga oid. Xalq og'zaki ijodining estetik funksiyasi u bolalarda badiiy didni shakllantirishi, go'zallikni qadrlash va tushunishni hosil qilishi, barkamol rivojlangan shaxsni shakllantirishga ko'maklashadi.

Tarbiyaviy funksiyaning mohiyati xalq og'zaki ijodi xalq pedagogikasi vositasi hisoblanib inson xarakter xususiyatlarini shakllantirishidan iboratdir. Maqollar, matallar, ertaklar yuqori ma'naviy va axloqiy mazmun bilan to'ldirilgan va "yaxshi" va "yomon" nuqtai nazaridan shaxsga tavsifiy baho beradi.

Xalq og'zaki ijodining bilishga oid ahamiyati bu bolani atrof-olam bilan tanishtirish usuli ekanligidan iboratdir. Bularning barchasi xalq og'zaki ijodini axloqiy madaniyatni tarbiyalashning samarali vositasiga aylantiradi[7;122-b].



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – B. 68.
2. Musurmonova O. Pedagogik qadriyatlar va tarbiya nazariyasi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2020. – B. 115.
3. Mahmudov M. Xalq pedagogikasi. – Toshkent: Fan, 2018. – B. 48–55.
4. Safarova R., Haydarov M. Maxsus pedagogika. – Toshkent: Tafakkur, 2021. – B. 29.
5. Mavlonova R., To'rayeva O., Xoliqberdiyev K. Pedagogika. – Toshkent: O'qituvchi, 2022. – B. 124.
6. Imomov K. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: O'qituvchi, 2017. – B. 88-112.
7. Hasanboyeva O., To'raqulov X., Haydarov M. Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'lim. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2023. – B. 122.

